

## **XORIJIY TILNI HAR XIL YOSH KATEGORIYASIGA (MATABGACHA VA UNDAN YUQORI BO'LGAN BOLALARGA) MOSLAB O'RGATISH**

*Shukurova Moxira Baxodirovna*

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili 2 fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi  
2- bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: N.N.Zubayadova*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tili fanini turli xil yosh kategoriyasiga (matabgacha va undan yuqori bo'lgan bolalarga) moslab o'rgatishdagi yangi metodlar chuqur o'rganib , tahlil qilindi. Va bugungi kunda ommalashib kelayotgan 4 ko'nikmani rivojlantirish bo'yicha yangi zamonaviy metodlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** turli yosh kategoriyalari, ta'lim dasturi, ped texnologiyalar, 4 ko'nikma:(o'qish , yozish , tinglab tushunish va og'izaki muloqot)ni rivojlantirish uchun zamonaviy metodlar.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish dolzarb masalardan biri bo'lib kelmoqda. Sababi, mustaqilligimizdan keyin xorijiy davlatlar bilan bo'lgan munosabatlar kengaymoqda. Shu sababli xalqimizning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda.

Ta'lim dasturlari haqida so'z yuritilganda, beixtiyor ko'z o'ngimizga turli o'quv yurtlari keladi. Chet tilini o'rgatish, asosan, 4-5 yoshdan, maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida, ya'ni bog'chalardan o'rgatish boshlanadi. Ushbu ta'lim jarayonidan keyingi pog'ona, boshlang'ich ta'lim, 1-4 sinfgacha bo'lgan yoshdagilar hisoblanadi. Keyingi darajalar o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb- hunar maktablari yoki chet tillari oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'rgatish mumkin.

Hozirda bolaga kichik yoshdan boshlab uni yangi tilni, ya'ni chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, uni kelajakda muayyan sohani tanlashga qaratilgan. Kichik yoshdagagi bolalarga ko'proq mos keladigan va ularni jalb qiladigan qiziqarli usullarda chet tillarini o'rgatish ma'qul. Har bir yosh kategoriyalariiga moslangan chet tilini o'rgatish metodlari mavjud. Shuningdek, katta yoshdagagi bolalarga ham o'zlarining darajalariga mos bo'lgan darajada darslar o'tiladi.

Bolalarga xorijiy tilni o'rgatishda ko'proq o'yinlar, aqliy va jismoniy harakatlar, multfilimlar, audio va video darsliklar orqali o'rgatilsa, bolaning dars mashg'ulotlariga bo'lgan diqqati va qiziqishi ortadi. Natijada bolalar chet tilini tez va oson o'rganadilar.

**Pedagogik texnologiya** – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik

resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.<sup>[1]</sup>

Pedagoglar kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda quyidagi metodlardan foydalanishlari mumkin. Misol uchun, bolaning aqliy va nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun: “Riddle” (topishmoq), “Tongue twister”(tez aytish ) va turli kichik she'rlar, qo'shiqlarni qo'llashlari mumkin. ”Riddle”(topishmoq) orqali o'rgatishda o'qituvchi tomonidan bolalarga qog'ozchalarda ingliz tilidagi topishmoqlar beriladi, topishmoq yaxshilab o'rganiladi, yangi so'zlari topilib tarjima qilinadi, bolalar topishmoqni javobini topishadi. Bunda bolalar ham yangi so'zlarni o'rganadilar ham aqliy faoliyatini rivojlantiradilar. Bolalarning spellingini (talaffuzini) rivojlantirish uchun “Tongue twister”(tez aytish) lar samarali usuldir. Tez aytishlarning asosiy maqsadi, bolalarda nutqni rivojlantirish, aniqlikni oshirish, so'z boyligini o'stirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari chet el metodlaridan, “ELS games and teaching tips “ kitobiga qaraydigan bo'lsak, bolaning qiziqishini orttirish uchun turli xil o'yinlar va mashqlar berilgan. Masalan, bog'cha bolalari uchun “Spelling game” o'yini bor. Bu o'yin bolani ingliz tilidagi talaffuzini yaxshilaydi. Bu o'yinda bolalar bir qator bo'lib turiladi, o'qituvchi ma'lum bir ketma-ketlikda talaffuzi qiyinroq bo'lgan harflarni aytadi. Masalan: C, A, Y, G, J har bitta o'quvchi bitta harfdan bir xil tartibda aytishadi, kimdir adashib ketma-ketlikni buzsa o'yindan chiqariladi. Bu o'yin ham bolani darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi ham bolada chiroyli talaffuzni oshirishga yordam beradi.<sup>[2]</sup>.

Bugungi kunda ingliz tilini speaking (gapishtish), listening (tinglab tushunish), reading (o'qish) va writing (yozish) ko'nikmalarini o'rganish ommalashmoqda. Bu asosan o'rta sinflardan boshlab o'rganiladi. Hozirda muktab darsliklari ham 4 ko'nikma bo'yicha o'qitiladi, sababi muktabni bitirguncha bolada B2 darajada bilimga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. Bu 4 qobiliyatni rivojlantirishda turli xil zamonaviy usullardan foydalanish mumkin.

**4 ko'nikmani rivojlantirish uchun zamonaviy metodlar.** Speakingni (gapishtishni) rivojlantirish uchun turli xil “Speaking club” larda qatnashishi yoki “Speaking app”lardan foydalanishlari ko'proq samara beradi. Buning uchun maktablarda o'qituvchilar tomonidan “Speaking club”lar tashkil etilishi kerak. Speaking to'garaklariga qatnashgan bolalar bir- birlaridan yangi idealar o'rganadilar va bu ularning gapishtish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Listening (eshitish)ni rivojlantirish uchun o'qituvchi darsda standartlardan chetlashgan holda, qiziqarliroq qilish maqsadida, ko'proq ingliz tilidagi qo'shiq va multfilmlardan foydalanishlari samara beradi. Bunda o'quvchilar bir xil darslardan zerikib qolishmaydi.

<sup>1</sup>

<sup>2</sup>

Reading (o'qish) ko'nikmasini rivojlantirish uchun bir darsning o'zida o'qituvchi o'quvchilar bilan bitta matn ustida ishlashlari, matnni ichidan chiqgan har bitta yangi so'z bilan tanishib chiqishlari va savollarni javobilar bilan to'g'ri moslashtirishni o'rGANISHLARI kerak.

Writing (yozish) ko'nikmasini bolaga o'rgatishdan oldin o'qituvchi unga essay yozishdagi ma'lum strukturalarni o'rgatishi va unga idealar berishi kerak bo'ladi.

Bu ko'nikmalar bolani 4 ko'nikma bo'yicha rivojlantirishga katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytilganda, turli xil yosh kategoriyasi (maktabgacha va undan yuqori bo'lgan bolalar) ga xorijiy tilni o'rgatishda har xil metodlardan foydalanish, an'anaviy metodlardan ko'ra ko'proq samara bermoqda. Ushbu metodlardan foydalanib dars o'tilsa, dars mashg'ulotlari qiziqarli, barcha uchun tushunarli tarzda tashkil etiladi. Eng asosiysi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakillantirishga va chet tillarini o'rgatishga imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <http://manzura90.zn.uz/pedagogik-texnologiya-turlari/>.
2. ESL Spelling Games <https://www.teach-this.com/esl-games/spelling-games>.
3. Tonguetwisters in English | EF | Global Site <https://www.ef.com/wwen/english-resources/tongue-twisters-english>.
4. How to Make up a Riddle:11 Steps (with Pictures) – wikiHow <https://www.wikihow.com/Make-up-a-Riddle>.